

SUN'IY INTELEKTNING INSON HAYOTI VA KELAJAGIGA TA'SIRI

Rafikova Muattar Ravshanovna

Bojxona instituti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha fanlari doktori(PhD), dotsent, podpolkovnik

Mirzakarimov Olimjon Otabek o'g'li

*Bojxona instituti 1-kurs
425-guruh kursanti*

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.12.2025

Revised: 30.12.2025

Accepted: 31.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

Sun'iy intellect, raqamli texnologiyalar, normativ hujjatlar, axloqiy mas'uliyat, avtomatlashtirish, Big data, shaxsiylashtirilgan ta'lim, innovatsion rivojlanish, individual o'qish, logistika.

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqola kompyuter rivojlanishi negizida yuzaga kelgan sun'iy intellekt tizimlarining inson hayoti va jamiyat kelajagiga ko'rsatayotgan fundamental ta'sirini chuqur o'rganadi. Unda sun'iy intellektning tibbiyot, ta'lim, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi kabi sohalardagi ijobiy yutuqlari, xususan, samaradorlikni oshirish va murakkab masalalarni hal qilishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada mehnat bozoridagi o'zgarishlar, axloqiy dilemmalar, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi kabi muammoli jihatlar atroflicha muhokama qilinadi

Kirish

Sun'iy intellektning inson hayotiga va jamiyat kelajagiga ta'siri bugungi raqamli asrning eng muhim mavzusidir. Raqamli texnologiyalarning kengayishi sababli sun'iy intellekt tizimlari tezkorlik bilan rivojlanib, insoniyat turmush tarzi va faoliyatiga misli ko'rilmagan darajada kirib bormoqda.

Ushbu sohani tartibga solish maqsadida, dunyo miqyosida va O'zbekiston Respublikasida bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Xalqaro miqyosda, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan "Sun'iy Intellekt Akti" (AI Act) kabi keng qamrovli xalqaro shartnomalar bu sohadagi birinchi huquqiy tartibga solish mexanizmlaridan hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining komissiyasi tomonidan 2021-yil aprel oyida taklif qilingan va 2024-yil mart oyida 523 ovoz bilan Yevropa Ittifoqining sun'iy intellekt to'g'risidagi qonuni qabul qilingan. Ushbu tarixiy ovoz berish Yevropa Ittifoqini

sun'iy intellektni keng tartibga soluvchi qonunchilikni qabul qilgan birinchi davlatlar guruhiga aylantiradi, bu esa sog'liqni saqlash, transport, ishlab chiqarish va barqaror energiya kabi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish uchun kelajakda yaxshi sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Ushbu muhim qonun sun'iy intellekt texnologiyalarini xavf darajasiga qarab tartibga solishga, xavfsizlik, shaffoflik va asosiy huquqlarga rioya qilishni ta'minlashga, shu bilan birga Yevropa Ittifoqida innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan.[8] O'zbekiston Respublikasida esa Prezidentning "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori, shuningdek, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori kabi hujjatlar qabul qilingan. Bu — O'zbekiston hukumati tomonidan sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni mamlakat taraqqiyotiga keng tatbiq etish tarafdori ekani, va davlat darajasida strategik rivojlanish tamoyilini tanlangani demak. Bu qaror orqali sun'iy intellekt texnologiyalari sohalarda qo'llanilishi, davlat boshqaruvi va iqtisodiy jarayonlarda innovatsiyalar kengaytirilib, "raqamli rivojlanish" yo'liga katta urg'u berilgan. Bu hujjatlar Sun'iy Intellektni ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi tizimlariga joriy etishning asosiy yo'nalishlari, javobgarlik, xavfsizlik va shaffoflikni belgilovchi huquqiy bazani yaratishni nazarda tutadi [2].

Sun'iy Intellekt — bu inson zehniga xos bo'lgan vazifalarni, jumladan, fikrlash, o'rganish, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini mashinalarda amalga oshirishni o'rganuvchi kompyuter fanlari sohasidir [1]. Sun'iy intellekt algoritmlari yirik ma'lumotlar (big data) asosida ishlaydi, mashinani o'rganish texnologiyalari yordamida uzluksiz o'z-o'zidan takomillashib boradi va shu bilan ko'plab sohalarda inson mehnatidan tezroq va aniqroq natijalarni ta'minlaydi [2].

Sun'iy Intellekt – insonning aqliy salohiyatiga taqlid qiluvchi va ma'lumotlarni tahlil qilish, naqshlarni aniqlash hamda mustaqil qaror qabul qilish kabi intellektual vazifalarni bajarishga mo'ljallangan hisoblash tizimidir. [1].

Sun'iy Intellektning inson hayotiga ijobiy ta'siri juda keng qamrovlidir. Xususan, Sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellekt sog'liqni saqlash sohasida tez-tez qo'llanilmoqda va uning potentsiali juda katta.[7] Sun'iy intellekt tibbiyotda bir nechta sohalarda yordam beradi, masalan, tashxis qo'yish, davolash rejalarini tuzish, bemorlarni kuzatish va sog'liqni saqlash tizimini optimallashtirish. Sun'iy Intellekt kasalliklarni, masalan, radiologik tasvirlarni tahlil qilish orqali xavfli o'smalarni, juda yuqori aniqlikda erta tashxislashga yordam beradi, bu esa davolash samaradorligini keskin oshiradi [2]. Sun'iy intellekt ta'lim sohasida ham katta imkoniyatlarga ega va uning ta'lim jarayoniga kiritilishi o'qitish va o'rganishni tubdan o'zgartirishi mumkin. Sun'iy intellekt ta'limda ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda, jumladan individual o'qish tajribalarini yaratish, o'qituvchilarga yordam

berish, tahlil qilish va boshqarish tizimlarini rivojlantirish kabi. Sun'iy intellekt shaxsiylashtirilgan ta'lim dasturlarini yaratish imkonini berib, har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlariga moslashadi va bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi [3]. Sun'iy intellekt iqtisodiyot va sanoat sohalarida ham keng qo'llanilmoqda va u ushbu sohalarda samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va yangi imkoniyatlar yaratishda muhim rol o'ynamoqda. Sun'iy intellektning iqtisodiyot va sanoatdagi qo'llanilishi, avtomatlashtirish, analitikani kuchaytirish, resurslarni optimallashtirish va yangi biznes modellari yaratishda yordam beradi. Bu esa sun'iy intellekt ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirish, logistika yo'nalishlarini optimallashtirish va moliyaviy xavflarni tahlil qilish orqali umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Masalan, avtomobil sanoatida, sun'iy intellekt robotlari montaj jarayonlarini amalga oshiradi. [4].

Biroq, sun'iy intellekt ko'plab sohalarda samaradorlikni oshirgan va yangi imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, uning salbiy ta'sirlari ham mavjud. Bu ta'sirlar texnologiyaning o'zgaruvchan va tez rivojlanayotgan tabiati bilan bog'liq. sun'iy intellektning jadal rivojlanishi jamiyat oldida turgan jiddiy axloqiy va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Eng muhim tashvishlardan biri mehnat bozorining o'zgarishidir. Ko'plab muntazam va takrorlanuvchi vazifalar avtomatlashtirilishi oqibatida, ayrim sohalarda ish o'rinlari qisqarib, ishsizlik ko'rsatkichlarining ortishiga olib kelishi xavfi mavjud [5]. Bu holat insoniyatdan yangi raqamli ko'nikmalarni egallashni va doimiy o'rganishni talab qiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt tizimlarida mavjud bo'lgan noto'g'ri ma'lumotlar yoki algoritmik xatolar axloqiy mas'uliyat va kamsitish muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt tomonidan qabul qilingan noaniq qarorlar irqiy yoki jinsiy tengsizlikni kuchaytirishi ehtimoli bor.

Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi masalasi ham ushbu texnologiyaning rivojlanishi bilan yanada murakkablashmoqda, chunki sun'iy intellekt tizimlari doimiy ravishda milliardlab ma'lumotlarni to'playdi va tahlil qiladi, bu esa insonning shaxsiy hayoti daxlsizligiga tahdid solishi mumkin [6].

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt insoniyat oldida turgan ko'plab muammolarni hal qilish va hayot sifatini yaxshilash uchun juda katta salohiyatga ega. Biroq, bu texnologiyaning kelajakdagi rivojlanishi unga nisbatan mas'uliyatli, axloqiy va huquqiy yondashuvni talab etadi. Normativ hujjatlar orqali sun'iy intellektni tartibga solish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, jamiyatning barcha a'zolari uchun sun'iy intellekt imkoniyatlaridan teng foydalanishni ta'minlash bugungi kunning eng muhim vazifasidir. Sun'iy intellekt insonni almashtiruvchi emas, balki uning aql-zakovatini kuchaytiruvchi vosita sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Proindex.uz. Sun'iy Intellekt Va Uning Inson Hayotidagi Ahamiyati (10-b)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash" to'g'risida.
3. AI kelajagi: kelgusi 5 yil ichida nimani kutish kerak. Wikiprdia. itpedia.nl
4. Sun'iy intellekt va akt: innovatsion texnologiyalarning kelajagi. Maqola. Rasuleva M.R. Aliyeva N.M. Xashimxodjayeva M.D. Toshkent amaliy fanlar universitet
- 5 Iqboloy Fayzullayevna. Sun'iy intellekt kimlarni ishsiz qoldiradi? – Oyina.uz. Ilmiy tadqiqot. Homep, сон, 8-b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevral "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prizidentining 22.01.2024 yildagi "Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-38 son qarori
8. Yevropa ittifoqining sun'iy intellekt to'g'risidagi qonunning tahlili. InfoCOM.UZ